



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

SPORT TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK QILISH VA BOSHQARISH

Artikov Xayrulla Baxtiyarovich

O'zDJTSU Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruvning zamonaviy tamoyillari, rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablar hamda sport tashkilotlarini samarali boshqarishda rahbarlik faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Sport tashkilotlarida boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish, jamoani bir maqsad sari yo'naltirish va sportchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda rahbarning kasbiy mahorati muhim o'rin tutadi. Maqolada zamonaviy rahbarning kommunikativ qobiliyati, liderlik fazilatlari, tashabbuskorligi, mas'uliyati va boshqaruv madaniyati masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, sport tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish, sog'lom psixologik muhit yaratish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, boshqaruv, sport tashkiloti, liderlik, dominantlik, rahbarlik fazilatlari, boshqaruv madaniyati, kommunikativ qobiliyat, jamoa boshqaruvi, sport menejmenti, samaradorlik, motivatsiya, strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, sport faoliyati.

Abstract: This article discusses modern principles of leadership and management in sports organizations, the requirements for managerial personnel, and the importance of leadership in ensuring the effective functioning of sports organizations. The professional competence of a leader plays a significant role in organizing management processes, coordinating athletes' activities, and directing the team toward common goals. The article analyzes the communicative abilities, leadership qualities, initiative, responsibility, and management culture of modern sports managers. Furthermore, theoretical and practical aspects of innovative management approaches, the creation of a healthy psychological environment, and improving management efficiency in sports organizations are examined.

Key words: leader, management, sports organization, leadership, dominance, managerial qualities, management culture, communicative abilities, team management, sports management, efficiency, motivation, strategic planning, innovative management, sports activity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные принципы руководства и управления в спортивных организациях, требования к личности руководителя, а также значение управленческой деятельности в обеспечении эффективной работы спортивных организаций. Особую роль в организации управленческого процесса, координации деятельности спортсменов и направлении коллектива к общей цели играет профессиональное мастерство руководителя. В статье анализируются коммуникативные способности современного руководителя, лидерские качества, инициативность, ответственность и культура управления. Также рассматриваются теоретические и практические аспекты инновационного управления спортивными организациями, создания благоприятного психологического климата и повышения эффективности управления.

Ключевые слова: руководитель, управление, спортивная организация, лидерство, доминантность, качества руководителя, культура управления, коммуникативные способности, управление коллективом, спортивный менеджмент, эффективность, мотивация, стратегическое планирование, инновационное управление, спортивная деятельность.

KIRISH

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sport tashkilotlari faoliyatining samaradorligi esa ko'p jihatdan ulardagi boshqaruv tizimi va rahbarlik faoliyatining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Zamonaviy sport tashkilotlari murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida nafaqat sport natijalariga erishishni, balki yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb qilish, sport madaniyatini rivojlantirish va jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Sport tashkilotlarini boshqarishda rahbar shaxsining o'рни alohida ahamiyatga ega. Rahbarning bilim saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ madaniyati, liderlik xususiyatlari va strategik fikrlashi tashkilot faoliyatining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, zamonaviy rahbar sport jamoasini boshqarishda faqat ma'muriy faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi, sportchilar va murabbiylar bilan samarali muloqot o'rnatishi hamda sog'lom psixologik muhit yaratishi lozim.

Hozirgi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda sport tashkilotlari oldiga yangi talab va vazifalar qo'yilmoqda. Sport sohasida yuqori natijalarga erishish uchun boshqaruv tizimini zamonaviy menejment tamoyillari asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunda rahbarlarning kasbiy kompetentligini oshirish, boshqaruvning innovatsion usullaridan foydalanish, strategik rejalashtirishni yo'lga qo'yish hamda jamoa faoliyatini samarali muvofiqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sport tashkilotlarida rahbarlik qilish jarayoni nafaqat tashkiliy boshqaruvni, balki inson omiliga e'tibor qaratishni ham talab etadi. Sportchi, murabbiy va boshqa xodimlarning manfaatlarini hisobga olish, ularni rag'batlantirish va motivatsiya berish sport tashkiloti faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois sport tashkilotlarida rahbarning liderlik qobiliyati, tashabbuskorligi, mas'uliyati va boshqaruv madaniyati muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruvning nazariy asoslari, zamonaviy rahbarlarga qo'yiladigan talablar, boshqaruv samaradorligini oshirish omillari hamda sport tashkilotlarini rivojlantirishdagi boshqaruv faoliyatining ahamiyati keng yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda ko'plab tadqiqotchilar diqqat-e'tiboridagi asosiy xususiyatlardan biri – rahbar shaxsiga xos dominantlik (ustunlik)ka intilishdir. Aynan shu sifat rahbarning tashabbusni o'z qo'lga olishiga, guruhga yetakchilik qilishiga va murakkab vaziyatda mas'uliyatni o'z bo'yniga olishiga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan tadqiqotchi R. Stogdill qalamiga mansub "Rahbar qo'llanmasi"da dominantlik boshqaruvga zarur sifatlar ro'yxatida birinchi o'ringa qo'yiladi. Dominantlik so'zi bir necha ma'noni anglatadi. Rahbarlik mavzusidan kelib chiqilsa, o'zgalarga ta'sir etish degan bir jumla mazmunan hamma gapga asos bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlangan ma'nodagi "ta'sir etish" iborasi hissiyot tufayli o'zgalarni o'ziga jalb eta bilish, o'zaro munosabat natijasida o'ziga nisbatan xayrixohlik hissini yaratishni anglatadi. Chunki tashkilotning ilg'or faoliyati uchun rahbar o'z zimmasidagi rasmiy majburiyat va vakolatlari o'zi yetarli emas. Peshqadam rahbarga xos fazilatlaridan biri – vazminlik va sabr-bardoshlilikdir.

Rahbar hissiyotining muvozanatlashganligi uning ichki dunyosiga xos qarama-qarshi tuyg'ularning tug'yoniga yo'l qo'ymaslikda va kayfiyatdagi sokinlikda ifodalanadi. Ma'lumki, rahbar odamlar orasida va ularga xos turli hissiyotlar og'ushida yashaydi. Binobarin, atrofdagilarning salbiy yoki ijobiy his-tuyg'ulari o'zaro kundalik muloqotda tez "yuqish" xususiyatiga ega. Shuning uchun rahbar qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda nafaqat boshqalarning hissiyoti ta'siriga berilmasligi, balki atrofdagilarga o'z muvozanati va jilovlangan his-tuyg'usi bilan ta'sir eta olishi kerak. Mehnat faoliyatini ratsional tarzda tashkil etish, ya'ni mehnatdagi ijobiy jihatlarga ko'proq e'tibor berish, noxush vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etish, ko'proq yaqin do'stlar davrasida bo'lish, jismoniy tarbiya va foydali mashg'ulotlarga ishqibozlik kayfiyatida vaqtni o'tkazish har qanday stressga qarshi tura olishni kuchaytiradi, shuningdek, organizmning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga xizmat qiladi. Boshqaruv faoliyatini samarali bajarish uchun rahbarga zarur fazilatlaridan yana biri – muvaffaqiyatga intilishdir. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'ya olishi va uni bajarishga urinishi lozim. Rahbar tavakkalga bora oladigan va xavf-xatardan qo'rqmaydigan xarakterga ega bo'lishi lozim. Maqsadga erishish ishtiyoqi bilan yashaydigan odam doim o'z faoliyat natijalari haqida xabardor bo'lishni istaydi. Mehnat bilan bog'liq vaziyat esa faoliyatidan ma'lumot olish orqali o'z hayot mazmunini tahlil etish imkonini beradi.

Sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, boshqaruv nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Piter Druker o'z tadqiqotlarida samarali boshqaruvning asosiy omili rahbarning strategik fikrlashi va inson resurslaridan oqilona foydalanishida namoyon bo'lishini ta'kidlagan. Uning fikricha, rahbar tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi.

Boshqaruv sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan Genri Minsberg rahbarlik faoliyatini tahlil qilib, rahbarning tashkilotdagi shaxslararo munosabatlar, axborot almashinuvi va qaror qabul qilish bilan bog'liq vazifalarini asoslab bergan. Uning tadqiqotlari zamonaviy tashkilotlarda rahbarlik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Liderlik nazariyasini rivojlantirgan olimlardan Ralf Stogdill rahbar shaxsiga xos sifatlarini o'rganib, dominantlik, tashabbuskorlik, mas'uliyat va muloqot madaniyatini samarali rahbarning muhim xususiyatlari sifatida baholagan. Uning qarashlari sport tashkilotlarini boshqarishda ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy olimlardan R.S. Salomov jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv hamda tashkilotchilik masalalarini tadqiq etgan bo'lib, sport muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda rahbar kadrlarning kasbiy tayyorgarligi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shuningdek, F.A. Kerimov sport sohasida murabbiylik va boshqaruv faoliyatining o'zaro bog'liq jihatlarini tahlil qilib, sport natijalari ko'p jihatdan rahbar va murabbiylarning boshqaruv mahoratiga bog'liq ekanligini qayd etgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda asosan umumiy boshqaruv nazariyasi, liderlik sifatleri va sport sohasidagi tashkilotchilik masalalari yoritilgan. Biroq sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarishning zamonaviy sharoitlardagi o'ziga xos xususiyatlari, xususan, innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash, jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv masalalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy-uslubiy manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida qiyosiy-taqqoslash usulidan foydalanilib, sport tashkilotlarini boshqarish sohasidagi mahalliy va xorijiy tajribalar o'zaro solishtirildi. Xususan, rivojlangan davlatlarda sport menejmenti va rahbarlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlari tahlil qilinib, ularning milliy sport tizimida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, tahliliy va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali sport tashkilotlarida rahbarning liderlik qobiliyati, boshqaruv madaniyati, strategik rejalashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Tadqiqotda kuzatish va tavsiflash usullaridan foydalanilib, sport tashkilotlarida boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv tizimini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda sport tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv tizimining to'g'ri tashkil etilganligi hamda rahbarlarning kasbiy kompetentligiga bog'liq. Tadqiqot davomida sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, rahbarning liderlik qobiliyati, strategik fikrlashi, kommunikativ madaniyati va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi tashkilot faoliyatining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Sport tashkilotlari faoliyatini o'rganish jarayonida boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim sport tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmasligi, rahbarlarning malakasini oshirish tizimining takomillashmaganligi hamda jamoa a'zolari o'rtasida samarali kommunikatsiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kuzatildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sport tashkilotlari faoliyati samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar rahbarning liderlik qobiliyati, strategik rejalashtirish va kommunikativ madaniyati hisoblanadi. Ayniqsa, liderlik qobiliyatining yuqori darajada namoyon bo'lishi rahbarning jamoani bir maqsad sari yo'naltira olishi, samarali qarorlar qabul qilishi va tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tahlil natijalari sport tashkilotlarida innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanayotgan sport tashkilotlarida xodimlar faoliyati, jamoaviy hamkorlik va sport natijalari nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar asosida sport tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun rahbarlarning malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy menejment tamoyillarini amaliyotga joriy etish, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish zarurligi aniqlandi.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatleri kompleks ravishda tahlil qilinib, rahbarning liderlik fazilatleri, boshqaruv madaniyati va innovatsion yondashuvlarning sport tashkiloti faoliyati samaradorligiga ta'siri yoritib berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, sport tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruv tizimini samarali tashkil etish sport sohasining rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sport tashkilotlari faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan rahbarning kasbiy kompetentligi, liderlik qobiliyati, boshqaruv madaniyati va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishiga bog'liq. Rahbarning to'g'ri tashkilotchilik faoliyati sport jamoasining uyg'un ishlashini ta'minlaydi hamda sportchilar va murabbiylarning yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.



Sport tashkilotlarida boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, strategik rejalashtirish va zamonaviy menejment tamoyillaridan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, sog'lom psixologik muhit yaratish, jamoada o'zaro hamkorlik va ishonchni mustahkamlash rahbar faoliyatining muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sport tashkilotlarida xodimlarni rag'batlantirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish tashkilot faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda sport tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion usullardan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida sport menejmentini takomillashtirish, rahbarlarning kasbiy malakasini oshirish hamda boshqaruv faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash orqali sport tashkilotlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Shunday qilib, sport tashkilotlarida samarali rahbarlik va boshqaruv tizimini shakllantirish sportchilarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, sog'lom sport muhitini yaratish hamda jismoniy tarbiya va sport sohasining taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga oid qaror va farmonlari to'plami. – Toshkent, 2022.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 320 b.
4. Karimov F.A. Sport menejmenti va boshqaruv asoslari. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2021. – 248 b.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва: Спорт, 2019. – 543 с.
6. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2020. – 680 с.
7. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. – Москва: Вильямс, 2018. – 672 с.
8. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 2017. – 576 p.
9. Chelladurai P. Managing Organizations for Sport and Physical Activity. – Arizona: Holcomb Hathaway Publishers, 2016. – 432 p.
10. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-uslubiy materiallari. – Toshkent, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.